

GILAM MAHSULOTLARI TUK HOSIL QILISH JARAYONI TAHLILI

Yusupova Nodira Baxtiyarovna

PhD, dotsent; Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Abdullaeva Nozima Abduolimovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7245089>

Annotatsiya. Gilamdo ‘zlik amaliy san’at turi bo‘lib, har bir hududning o‘ziga yarasha tugun turlari, naqsh ornamentlari o‘z tarixidan, milliy urf odatlardan kelib chiqqan holda gilamlarda o‘z aksini topadi. Maqolada gilam ishlab chiqarishda tuk uchun ishlataladigan tugun turlar, tugun bog‘lash metodlari bo‘yicha xomashyo sarfini kamaytirish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tanda, arqoq, taqir, gilam, ip, to‘qima, bezak, kigiz, texnologiya.

АНАЛИЗ ПРОЦЕССА ПРОИЗВОДСТВА ВОРСОВЫХ КОВРОВЫХ ИЗДЕЛИЙ.

Аннотация. Ковроткачество – вид практического искусства, и в каждом регионе существуют свои виды узлов, узоров и орнаментов, основанные на его истории и национальных традициях, которые находят свое отражение в коврах. В статье приведены сведения о видах узлов, используемых для выполнения ворса при изготовлении ковров, снижении расхода сырья методами при выработке ковров.

Ключевые слова: основа, уток, безворсовый, ковёр, нить, ткань, украшение, войлок, технология.

ANALYSIS OF THE PRODUCTION PROCESS OF PULT CARPET PRODUCTS.

Abstract. Carpet weaving is a kind of practical art, and each region has its own types of knots, patterns and ornaments, based on its history and national traditions, which are reflected in carpets. The article provides information about the types of nodes used to make pile in the manufacture of carpets, reducing the consumption of raw materials by methods in the production of carpets.

Keywords: warp, weft, lint-free, carpet, thread, fabric, ornament, felt, technology.

KIRISH


Davlatimiz rahbarining “Respublikada qo‘lda to‘qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori momomeros hunarni yanada rivojlantirish barobarida aholining kam ta‘minlangan qatlami, xususan, xotinqizlar bandligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Me’yoriy hujjatda mahsulot homashyosini tayyorlashdan boshlab jahon bozoriga olib chiqishgacha bo‘lgan jarayonning huquqiy mexanizmi batafsil aks ettirilgan. Vatanimiz hunarmandchilik, qadimiylar madaniyat va halq amaliy san’ati durdonalariga boy. Bunga gilamdo‘zlik san’ati ham yorqin misoldir. Tarixan gilamlar boylik va uy-joy ramzi hisoblanadi. O‘tgan asrlarda gilamlar o‘ziga xos hashamat bo‘lib, hukmdorlar va aslzodalar xonalarida bezak vazifasini o‘tagan. Bugungi kunda gilamlar Vatanimizning boy madaniyati, urf-odatlari va uyg‘unligini aks ettiradi. Har bir gilam o‘ziga xosdir. Rang, bezak — bularning barchasi gilam tarixidan hikoya qiladi. Masalan, Samarqandda ustalar qora, qizil va ko‘k ranglardan foydalanishadi. Buxoroda “firma“ gilami ko‘p rangli hoshiyalar va uzun qoziqli gilamlardir. Farg‘ona vodiysida qizil va ko‘k chiziqlar ayniqsa afzal. Xiva gilamlari — o‘simplik naqshlari timsoli. Rang va motivlarni tanlash shunchaki farqlanib turishi uchun ustalarning istagi. Har bir gilamda madaniy ma’no va qadriyatlar mavjud. Shunday qilib, quyosh, tumorlar va tog‘ echkisi shoxlari tasvirlari uning egasini zarardan himoya qilish va

uya omad va farovonlik olib kelish uchun mo‘ljallangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora tadbirdari to‘g‘risida»gi Farmoni ning ijrosi esa hunarmandchilik sohalarini rivojlantirish uchun, avvalo, buyum turlari, shag‘l va bezaklari, ishlab chiqarish an‘analarini tarixini mukammal o‘rganishini taqozo etadi. Gilamchilik yurtimizda qadimdan rivojlanib kelayotgan noyob hunarlardan biri. Gilam ishlab chiqarishni yanayam rivojlantirish maqsadida gilamga tushiriladigan tugun turlari tahlili qilindi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

1-rasm.

Gilam to‘qimachilik mahsulotiga tushiriladigan tugunlar. T- tanda ipi, A₁, A₂- arqoq ipi, T-Tuk tuguni, 1-2 tanda ipi uchun (chapda), 2-2ta tanda ipi uchun (o‘ngda), 3-2 ta juft tanda ipi uchun, 4-2 ta tanda ipi uchun(vertikal)




Tuk tandasi tugunini hosil qilish texnikasi quyidagi turlarga bo‘linadi: bitta tanda ipini bog‘lash asosidagi, bir tanda ipini bog‘lab keyingi ipni o‘rab oladigan ,ikkita tanda ipini bog‘lash asosidagi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ikkili turk tuguni o‘zining ishlab chiqarilish usulidan kelib chiqib, ikkita tanda iplarining bog‘lanishi natijasida hosil bo‘ladi. Tugunni bog‘lashdan oldin ortiqcha ipni kesib tas’haladi. Kalta tuk iplarini tugun qilib bog‘lash qiyin jarayon, shu sabab tuk balandligi 2-3 sm, 5-6 smlı iplarni tanda iplari


orasidan o'tkaziladi. Ikkita tanda iplari ustiga tuk uchun mo'ljallangan ipni qo'yib, oldin bitta uchini tanda ipi orasidan o'ng uchini qo'yib, so'ng ikkinchi uchini chap tomondagi tanda ipini orqasidan o'tkazib, so'ng o'zimizga qarab tortamiz. Tugunni gilam mahsuloti qirg'og'iga tushirasmi. Tugun tayyor bo'ladi. Tanda iplaridan ikkitasini o'zimizga qarab tortamiz, tukchalarini ularning ustiga qo'yamiz. Undan keyin tugun uchun mo'ljallangan ipning o'ng uchini o'ng tomondagi tanda ipi bilan, chap tomondagi tanda ipini chap tomondagi tanda ipi bilan o'rav olamiz. O'rav olingan ipni pastga tushirsak tugun tayyor.

2-rasm.**Tanda iplari orasidan tuk uchun tugun a) o'ngdan va b) chapdan o'tkazish texnikasi.**

Ikkita bog'lamli tugunningning yana biri chap qo'l bilan ikkala tanda iplarini ko'tarib, o'ng qo'l bilan tanda ipining ustidan tugunak ipini o'tkazib, orqasidan uni o'rav o'tkazib, oldinga tortamiz. So'ngra arqoq ipini o'ng tomondagi ko'tarilgan tanda ipini aylantirib o'tib, ikkala tandani o'rtasidan tortamiz. Tugunakni pastga tortamiz va ortiqcha uchlarini kesamiz. Bu usulda oldindan iplar kesib olinmaganligi sababli, xomashyoni tejasak bo'ladi. Persid usuli bo'yicha 15-20 mm tanda iplarining oralari ochiq bo'ladi. Balandligi bilan ular 4-8 mm gacha bo'lgan tugunlar qatorlari orasidagi masofaga - bitta ipga bog'langan, lekin ikkitasini qoplaydi. Bir yarim tugun o'ng va chap tomondan o'tkazilishi mumkin. O'ng tomon tugunlari quyidagicha amalga oshiriladi: o'ng tomondagi tanda iplarini ko'taramiz va o'ramadagi ipni uning ostidan o'tkazamiz. Keyin o'ramadagi ipning uchini chap tomondagi tanda ipning ostidan o'tkazamiz. Chap qol'ingiz bilan ikkala uchini oldinga tortib, pastga tushirib va ortiqcha ipni kesib olinadi.

Chap tomon tugunlari shunisi bilan farq qiladi, chunki o'tkazish chap tomon ipidan boshlanishi kerak. Ikkita tugun ham bitta tanda ipidan o'tkazilib bog'langanligi uchun bu tugun mustahkamligi ancha yuqori bo'ladi, lekin bir yarim tugun tezroq bog'lanadi va tolalarni teng ravishda taqsimlaydi, bu esa ko'pincha yuqori zichlikdagi gilam ishlab chiqarishda qollanilishida katta samara beradi. Zichligi yuqori bo'lganligi sababli, issiqlik saqlash xususiyati ham ancha yuqori bo'ladi.

3-rasm.**Tanda iplari orasidan tuk uchun ikkitali yoki bir yarimtalik tugunlar.**




MUHOKAMA

Bittali tugunlar asosan mayda naqshli gilam mahsulotlari ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Ba'zida esa nozik gilam mahsulotlari naqsh chizig'ini to'ldirish uchun ikkitali yoki bir yarimtalik tugunlardan foydalanamiz.


4-rasm.

Tanda A₁, A₂ arqoq iplari, tuk iplari, 1- ikkita tanda ipidan(chapdan), 2- ikkita tanda ipidan(o'ngdan), 3- ikkita juft tanda ipi (vertikal)



5-Rasm.

Tanda ipi, A₁, A₂ arqoq iplari, tuk iplari, 1- ikkita tanda ipidan, 2- ikkita juf tanda ipidan, 3- bitta tanda ipi, 4- ikkita tanda ipidan(vertikal)



Tukli gilamlarning oldi tomondan ko‘rinishi mayda tugunak naqshlaridan iborat bo‘lib, polotno o‘rilishidagi tanda iplaridan arqoq iplarini tuk sifatida foydalangan holda o‘tkazib bog‘lashidan hosil bo‘ladi. Kerakli uzunlikdan ortiqchasi qirqib tashlanadi va bir tekisdagi yumshoq tuk qatlami hosil bo‘ladi. Gilam mahsulotlarining tugunlari gilamning butun kengligi bo‘ylab gorizontal qatorlarda bog‘lanadi.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат нашриёти, Тошкент. 2002. 3Т. – б. 10-12.
2. Ўзбекистон халқ амалий безак санъати. Мехнат. Тошкент. 1991. –б. 334-335.

3. Siddiqov P.S., N.B.Yusupova. National avrova fabrics and peculiar production technologies // Proceedings of the uzbek-japan symposium on ecotechnologies Innovation for sustainability-harmonizing science, technology and economic development with human and natural environment 2016, t.126
4. К.Э. Разумеев, Н.Б.Юсупова, Д.Т.Назарова, С.Ш.Ташпулатов. Улучшения качества костюмных хлопчатобумажных тканей в зависимости от её опорной поверхности // Известия вузов. Технология текстильной промышленности. Иваново, 2019, № 5 (383). – С.85-88.